

Umumta'lim maktabining 2025-2026-o'quv yili kimyo fanini amaliy o'zlashtirish
darajasini aniqlash

10-__sinf o'quvchisi

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: ____ (maksimal ball: 20)

Amaliy mashg'ulot. Organik birikmalar tarkibini tahlil qilish

Ishning maqsadi: Organik birikmalar tarkibida uglerod va vodorodni aniqlash



Kerakli modda va jihozlar: mis (II) oksidi, parafin yoki kraxmal, ohak suv, shtativ, gaz o'tkazuvchi nay, ptobirka, spirt lampa yoki quruq spirt

Xavfsizlik qoidalari

Ishni bajarish tartibini to'liq o'zlashtirmasdan tajribani boshlamang.

Ish stolida ortiqcha jihozlar bo'lmasligi va kerakli jihozlar toza bo'lishi kerak.

Ishni bajarish tartibi

N _o	Jihozlar	Organik birikmalar tarkibida uglerod va vodorodni aniqlash
1		Quruq probirkaga 1 gr mis (II) oksid CuO va 0,5 gr organik modda (paraffin, kraxmal) hamda suvsiz mis kuporosi solinadi va probirka gaz o'tkazuvchi nayli trubka bilan biriktirilib, ikkinchi uchi boshqa probirkadagi taxminan 4—5 ml keladigan ohak suvi aralashmasiga botiriladi.
2		Birinci probirka gorizontal holda ushlanib, spirt lampasida qizdiriladi.
3		1-probirka devorlarida suv tomchilari hosil bo'lishini kuzating

Berilgan savollarga javob yozing.

1. Qanday modda ohak suvini loyqalantiradi va bu hodisa nimani bildiradi?

2. Tajriba davomida hosil bo'ladigan suv tomchilari nimani bildiradi? Amaliy tajriba asosida izoh bering.

3. Ushbu tajribani o'tkazishda nega aynan mis(II) oksid ishlatiladi? Uning tajribadagi vazifasini tahlil qiling.

4. Amaliy mashg'ulotda suvsiz mis kuporosi (CuSO_4) solinishini sababini tushuntiring.

Test-uz.ru